

**Umumta'limgak maktabining 2024-2025-o'quv yili biologiya fanini o'zlashtirish darajasini aniqlash
uchun topshiriqlar varianti**

11 - ___ sinf o'quvchisi _____ F.I.SH.

O'quvchi to'plagan umumiyy ball: _____ (maksimal ball: 40)

(DEMO)

1-topshiriq (B)

Tog‘ o'rmonlarida qobon populyatsiyasining keskin kamayib ketishi kabi jarayonlarni ekologiyaning qaysi sohasi o'rGANADI?


- A) Sinekologiya
- B) Autekologiya
- C) Demekologiya
- D) Tarixiy ekologiya



2-topshiriq (B)

Mubina qushlarni halqalash orqali ularning migratsiyasini o'rgandi. U ekologiyaning qaysi metodidan foydalandi?

- A) dala metodi
- B) ekologik tajriba metodi
- C) matematik modellashtirish metodi
- D) taqqoslash metodi




3-topshiriq (B)

Birlamchi organik birikmalarni hosil qiluvchi organizmlar berilgan javobni aniqlang. 1) qo'zidumba; 2) antirium; 3) qoplon; 4) g'izol; 5) lochin; 6) monstera; 7) qo'ziqorin; 8) giatsint; 9) chirituvchi bakteriya;

- A) 1,7,9
- B) 2,6,8
- C) 3,4,5
- D) 2,7,8

4-topshiriq (Q)

Rasmdagi chidamlilik darajasiga mos keluvchi to‘g‘ri ma’lumotni toping



- 1) Muhit omilining normadan o‘zgarishi baliqlarning ko‘payishiga olib keladi;
 - 2) Baliqlarning chidamlilik chegarasi tolerantlik deb yuritiladi;
 - 3) Chidamlilik chegarasi maksimum va minimumdan tashqarida bo‘ladi;
 - 4) Optimum zonasidan chetga chiqish noqulay hayot zonasini belgilaydi;
- A) 1,3
 - B) 2,4

- C) 1,2
D) 3,4

5-topshiriq (Q)

Rasmida berilgan hayvonlarga mos keluvchi to‘g‘ri javobni toping.



a

b

- 1) plankton organizm; 2) bentos organizm; 3) suv tubida yashaydi; 4) suv oqimi bilan ko‘chib yuradi;
 A) a-2,4; b-1,3
 B) a-2,3; b-1,4
 C) a-1,4; b-2,3
 D) a-1,3; b-2,4

6-topshiriq (Q)

Jadvaldagi noma'lum X uchun to‘g‘ri berilgan javobni toping.

Abiotik	notirik tabiat omillari	X1
Biotik	tirik tabiat omillari;	X2
Antropogen	inson faoliyati bilan bog‘liq omillar	X3

- 1) yog‘ingarchilik kam bo‘lishi oqibatida boshqoli o‘simliklarning qurib qolishi; 2) ko‘payish vaqtida qushlarni ovlash; 3) mayda baliqlarning yirik baliqlarga yopishib yashashi; 4) kakku paloponining boshqa qushlar inida voyaga yetishi; 5) o‘rmonlarning kesilishi; 6) o‘simlikning yangi navlarini yaratish; 7) yorug‘da primatlarning rang ajrata olishi;

- A) X1-1; X2-4; X3-7;
 B) X1-3; X2-5; X3-2;
 C) X1-2; X2-3; X3-4;
 D) X1-7; X2-3; X3-6;

7-topshiriq (Q)

Suksessiyaga mos keluvchi javobni aniqlang. 1) bir biotsenozning boshqa biotsenoz bilan almashinishi; 2) tirik organizmning tashqi muhitga moslanishi; 3) hayot mavjud bo‘lmagan joyda yangi hayotning vujudga kelishi; 4) tirik organizmlarning yashash muhiti;

- A) 1,4
 B) 2,4

- C) 1,3
D) 2,3

8-topshiriq (Q)

Rasmdagi o'simliklarga mos keluvchi javoblarni belgilang.




a

b

- 1) namlik kam joylarda o'sadi; 2) namlik yetishmasligiga chiday oladi; 3) ildiz tukchalari rivojlangan;
4) barglarida suv saqlaydi; 5) kserofit o'simlik; 6) mezofit o'simlik;
A) a-1,3,6; b-2,4,5
B) a-2,3,5; b-1,4,6
C) a-1,2,6; b-3,4,5
D) a-1,4,5; b-2,3,6


9-topshiriq (Q)

Talaba o'simlik bargidagi pigmentlar miqdorining faslga bog'liqligini o'rgandi. Olingan natijalar diagramma ko'rinishiga keltirildi. Diagramma asosida noto'g'ri fikrni aniqlang.



- 1) Pigmentlar miqdori kuzga kelib ortadi;
2) Kuzda xlorofill b miqdori keskin kamayadi;
3) Karotinoid miqdori bahorda ko'payadi;
4) Xlorofill a miqdori bahorda yuqori bo'ladi;
5) Bahorda xlorofill a xlorofill b ga nisbatan ko'p bo'ladi;
A) 1,3,5
B) 2,4,5
C) 1,2,3
D) 3,4,5

10-topshiriq (M)



O‘quvchilar guruhi adir qiyaliklarida o‘simpliklar turlicha zichlikda joylashganligining guvohi bo‘lishdi. Rasmda ko‘rsatilgandek, A qiyalikda o‘simpliklar miqdori B qiyalikka qaraganda ko‘proq va zichroq joylashgan. O‘quvchilar buning sababini aniqlash uchun ma’lum muddat davomida 3 xil ekologik omil ta’sirini tekshirishdi.

- Quyosh nurlanishi:** tekshirilayotgan hududga qancha quyosh nuri tushishi aniqlanadi.
- Tuproq namligi:** tekshirilayotgan hududdagi tuproqning namligi aniqlanadi.
- Yog‘ingarchilik miqdori:** tekshirilayotgan

hududda yog‘ayotgan yomg‘ir miqdori aniqlanadi.

O‘quvchilar har bir qiyalikka 3 xil ekologik omil ta’sirini tekshiradigan asboblarni 2tadan joylashtirib chiqishdi. Olingan natijalar quyidagi jadval ko‘rinishiga keltirildi.

	O‘rtacha quyosh nurlanishi	O‘rtacha tuproq namligi	O‘rtacha yog‘ingarchilik miqdori
A qiyalik	3800	28	450
B qiyalik	7200	18	440

Olingan natjalarga asoslanib to‘g‘ri javobni toping.

- Tuproqning namligi qiyalikdagi yog‘ingarchilik miqdorining ko‘p bo‘lishi sababli turlicha ko‘rsatgichga ega.
- Tuproq namligining ortishi qiyaliklardagi quyoshning nurlanish darajasi past bo‘lishiga bog‘liq.
- A qiyalikda nurlanishning past bo‘lishi namlikning pasayishiga sabab bo‘ladi.
- Yog‘ingarchilik miqdori deyarli bir xil bo‘lganligi sababli tuproq namligi ikkala qiyalikda bir xil.